

seeding/ Science Review// DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr/31102019/6747/

15. Otayarova G.U., Ravshanova N.A. Oddiyloviyanavtlarning sug'orish tartiblarini vegetatsiyadavrning davomiyligata'siri International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012567>.

16. Ravshanova N.A., Otaёrova G., Polvonov S.A. Tekhnologicheskiye aspekty vozdel'nyaniya sortov masha (Phaseolus aureus) v sovmestnykh i sovmeshёnnykh posевах s khlopchatnikom International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012218>

17. Otayarova G.YU., Xalilov N. i Ravshanova N.A. (2024). LOVIYANING O'SISHI, O'SISH DJADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. UCHENIY , 2 (5), 95-100. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/102>.

18. Tursunov Sh. N. Otayarova G. U., Quldoshev B. X., Imomnazarova F., N. A. Ravshanova. «Veterinariya va chorvachilik sohalarini rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni» mavzusidagi magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy – amaliy konferensiyasi. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/issue/view/106>, 1010-1013.

UO'T: 631.11. 631.8. 633.6

LOVIYA POYASINING BO'YI VA OSTKI BIRINCHI DUKKAKLARINING YERDAN BALANDLIGI

Otayarova Gulshoda Uzakovna,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

“O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish” kafedrasasi assistenti,

Ravshanova Nilufar Adilovna,

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri,

Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi direktori,

Xurshidova Marjona Abror qizi,

Zokirova Mavluda Foziljonovna,

Yusupova Mahliyo Sobir qizi,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabalari.

Annotatsiya. Mazkur maqolada loviyani ang'izga ekkanda poyasining balandligi va ostki dukkaklarning yerdan balandligi haqida bayon qilingan. Loviya poyasi va dukkaklarning yerdan balandligi ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liq holda o'zgarishlari kuzatildi. Loviya kuzgi bug'doy ang'iziga erta muddatlarda ekilsa, uning bo'yi va ostki birinchi dukkaklarining balandligi yuqori bo'lishi kuzatildi. Shuning uchun loviyani takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida keng maydonlarda yetishtirish imkoniyatini oshirishda loviyani ang'izga iyul oyining (1.07) boshida gektariga 400 ming dona urug' sarflab ekish maqbul hisoblanganligini tajriba natijalari ko'rsatib berdi.

Аннотация. В этой статье описана высота стебля и высота нижних стручков от земли при посадке фасоли в поле. Установлено, что высота стеблей и стручков фасоли от земли менялась в зависимости от сроков и стандартов посадки. Было замечено, что если фасоль была посажена рано на поле осенней пшеницы, ее высота и высота первых стручков были выше. Таким образом, результаты эксперимента показали, что допустимо высаживать фасоль в начале июля (1,07) из расчета 400 000 семян на гектар с целью повышения возможности выращивания фасоли в качестве повторной культуры озимой пшеницы на больших площадях.

Abstract. This article describes the height of the stem and the height of the lower pods from the ground when planting beans in the field. It was found that the height of the stems and pods of beans from the ground varied depending on the timing and standards of planting. It was observed that if beans were planted early in a field of fall wheat, their height and the height of the first pods were higher. Thus, the results of the experiment showed that it is acceptable to plant beans in early July (1.07) at a rate of 400,000 seeds per hectare in order to increase the possibility of growing beans as a repeat crop of winter wheat over large areas.

Kirish. Loviyani takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirishda poyasining balandligi va ostki birinchi dukkaklarining yerdan qanday darajada baland bo'lishi loviyaning ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liq ravishda o'zgardi [1,2,3].

Loviya hosilini texnika yordamida yig'ishtirib olishda loviyaning bo'yi va birinchi dukkaklarining yerdan balandligi muhim ahamiyatga ega. Agar loviyaning bo'yi past bo'lsa, birinchi dukkaklarining yerdan balandligi ham past bo'lib, hosilni yig'ishtirib

olishda donning nobud bo'lish muammosi yuzaga keladi. Bunday muammo ko'proq loviya maqbul muddatlarda va me'yorlarda ekilmaganda kuzatiladi [4,5,6].

Loviyaning dukkaklari pishib yetilgan vaqtda tanasi, barglari va boshqa qismlari yashil holatda bo'lib, don hosilini to'gridan-to'g'ri kombayn bilan yig'ishtirib olish imkonini bermaydi. Shu sababli loviya yetishtiradigan xo'jaliklarda ko'pchilik holatlarda loviya hosilini yig'ishtirib olishda dukkaklarining 70-80 foizi yetilganda,

Turli muddatlarda va me'yorlarda kuzgi bug'doy ang'iziga ekilgan loviyaning bo'yi va ostki birinchi dukkaklarining yerdan balandligi

Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari, ming dona/ga	Boyining balandligi, sm				Birinchi dukkaklarining yerdan balandligi, sm			
		1 qaytariq	2 qaytariq	3 qaytariq	o'rtacha	1 qaytariq	2 qaytariq	3 qaytariq	o'rtacha
1.07	260 (nazorat)	57+1,2	56+1,3	56±1,2	56	13±0,3	12+0,3	13+0,5	13
	330	58. 1,1	58+1,2	57+1,3	58	14±0,4	15+0,4	13+0,6	14
	400	60+0,9	61±1,1	62+1,2	61	16+0,2	16+0,5	14+0,4	15
	470	55+1,3	54=1,2	53±1,2	54	12+0,3	12+0,3	12+0,5	12
	540	54± 1,4	52-1,0	53±1,0	53	13+0,5	11+0,4	12+0,6	12
15.07	260 (nazorat)	54. 1,2	54+0,8	52+1,1	53	12+0,4	13+0,3	11+0,4	12
	330	55+1,1	56+1,3	54+1,2	55	12+0,3	13+0,4	11+0,4	12
	400	57+1,4	58+1,2	56+1,3	57	13+0,6	14±0,5	12+0,3	13
	470	52±1,3	49+1,1	49+1,1	50	11±0,4	12-0,4	10+0,5	11
	540	50+0,9	49+1,2	48+1,3	49	11+0,5	12+0,6	10+0,3	11

ertalabki kezlarda qo'l kuchi bilan yig'ishtirib olinib, yoyib qo'yiladi va quritiladi, so'ngra yanchiladi [13,14,15,16].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirilgan loviyaning bo'yi va ostki birinchi dukkaklarining yerdan balandligi uning ekish me'yorlari va muddatlari bilan bevosita bogliq ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumotlar 1-jadvalda keltirildi.

Olingan ma'lumotlar tahlil qilinganda, loviyaning ekish me'yori gektariga 260 ming donadan 400 ming donagacha oshirib borilishi bilan loviya poyasining balandligi ham oshib bordi. Masalan, loviya gektariga 260 ming dona ekilganda bo'yi o'rtacha 56 sm, 330 ming dona ekilganda o'rtacha 58 sm ni tashkil etgan bo'lsa, gektariga 400 ming dona ekilganda eng yuqori ko'rsatkich 61 sm ni tashkil etdi. Ekish me'yorini 400 ming donadan oshirilishi bo'yining past bo'lishiga sabab bo'ldi.

Loviya gektariga 470 ming dona ekilganda ushbu ko'rsatkich 54 sm ni tashkil etgan bo'lsa, 540 ming dona ekilganda 53 sm ni tashkil etdi. Yuqorida keltirilganidek, loviyaning bo'yi qanchalik baland bo'lsa, undagi birinchi dukkaklarni yerdan joylashish balandligi ham yuqori bo'ldi. Ostki birinchi dukkaklarning yerdan balandligi ekish me'yori gektariga 400 ming dona bo'lganda ostki birinchi dukkaklarning joylashishi boshqa variantlarga nisbatan 1-3 sm yuqorida joylashdi. Masalan, loviya 1 iyul muddatida gektariga 260 ming dona ekilganda ushbu ko'rsatkich 13 sm, 330 ming dona ekilganda 14 sm bo'lsa, gektariga 400 ming dona ekilganda 15 sm ni tashkil etdi. Loviyani qolgan ekish muddatlarida ham ushbu qonuniyatlar kuzatildi. Demak, loviyani ekishda ekish me'yorini gektariga 400 ming dona etib belgilanishi uning boyi hamda ostki birinchi dukkaklarini yerdan balandligining eng maqbul bo'lishiga erishiladi.

Loviya kuzgi bug'doy ang'iziga erta muddatlarda ekilsa, uning bo'yi va ostki birinchi dukkaklarining balandligi yuqori bo'lishi kuzatildi.

Olingan ma'lumotlarga qaraganda, loviya ang'izga iyul oyining boshida (1.07) gektariga 260 ming dona hisobida ekilganda bo'yining balandligi 56 sm ni, ostki dukkaklarni yerdan balandligi 13 sm ni, 330 ming dona ekilganda tegishli ravishda 58; 14 sm ni, 470 ming dona ekilganda 54; 12 sm ni, 540 ming dona ekilganda esa 53; 12 sm ni tashkil etdi. Tajribada eng yuqori ko'rsatkichlar gektariga 400 ming dona ekilganda kuzatilib, ushbu ko'rsatkich 61; 15 sm bo'lganligi kuzatildi. Loviya iyul oyining o'rtasida (15.07) ekilganida yuqoridagi ko'rsatkichlar tegishli ravishda 53, 12; 55, 12; 50, 11; 49, 11 sm ni tashkil etdi.

Ushbu muddatda kam eng yuqori ko'rsatkichlar tajribaning gektariga 400 ming dona urug' ekilgan variantda kuzatilib, ushbu ko'rsatkich 57, 13 sm bo'lganligi aniqlandi. Demak, loviyaning boyi ekish me'yorlaridan qat'iy nazar ang'izga iyul oyining boshida ekilganda (1.07) iyul oyining o'rtasida (15.07) ekilgandagiga nisbatan 3-4 sm, baland bo'ladi.

Tajribada loviyaning ostki birinchi dukkaklarining yerdan balandligi o'simlikning boyiga mutanosib bo'lishi kuzatildi.

Loviya iyul oyining boshida ekilganidagi (1.07) ostki birinchi dukkaklarining yerdan balandligi loviya ko'chatlarining qalinlik darajasiga mutanosib holda bo'lib, 12-15 sm, iyul oyining o'rtasida ekilganida (15.07) 11-13 sm ni tashkil etib, iyul oyining boshida ekilganida iyul oyining o'rtasida ekilgandagiga nisbatan 1-2 sm baland bo'lishi kuzatildi.

Xulosa. Samarqand viloyatining o'tloq bo'z tuproqlari sharoitida loviya kuzgi bug'doy ang'iziga gektariga 400 ming dona/ga urug' sarflanib, iyul oyining boshida ekilganida boyining balandligi ortib borishi bilan birga ostki birinchi dukkaklarining yerga nisbatan balandligi ham yuqorilashib boradi. Shuning uchun loviyani takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida keng maydonlarda yetishtirish imkoniyatini oshirishda loviyani ang'izga iyul oyining (1.07) boshida gektariga 400 ming dona urug' sarflab ekish maqbul hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Iminov A.A., Xalikov B.M. Takroriy ekinlarni tuproqdagi oziq moddalar miqdoriga ta'siri. // O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyati V qurultoyi maqolalar to'plami. - Toshkent, TAITDI. 2005. - B.257-258.
2. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik //; Toshkent, 2004
3. Xalilov N., Ravshanova N., Otayarova G.U. va boshqalar Ang'izga ekish uchun yaroqli loviya yangi navlari va ularning

agroteknikasi (tavsiyanoma) //; Samarqand, 2014

4. Loviyaning O 'Sishi, O 'Sish Jadalligi Va O 'Rtacha Sutkalik O 'Sishiga Sug 'Orish Tartiblarining Ta'siri. GU Otayarova, N Xalilov, NA. Ravshanova, SCHOLAR 2 (5), 95-100

5. H.A.Усманов, H.A.Равшанова, Г.У.Отаярова. ЗАВИСИМОСТЬ ДЛИНЫ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА СОРТОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ ОТ СРОКОВ И СПОСОБОВ ПОСЕВА. Academic research in educational sciences 2 (10), 718-724

6. Xalilov, N., Kosimova, SH., Otayarova, G., O'ktamov, X., & Abduqodirov, B. (2022). SILOS MASSA UCHUN MAKKAJO'XORI DURAGAYLARINI ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1207-1209.

7. Bekmuradova, X. K., & Ismoilov, A. I. Samarkand, Uzbekistan Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. BBK 65.2 S56, 58.

8. Омонов А. Ж. (2021). Оптимизация сроков и норм посева проса. Актуальные проблемы современной науки, (4), 83-87.

9. Omonov A. J. idr. Influence of conditional installation on biometric indicators and grain harvest //Life sciences and Agriculture. – 2020. – t. 2. – №. 2. – s. 60-64.

10. Abdisaxatova, S. S., Ismoilov, V. I., & Mavlonov, B. T. (2024). Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. GOLDEN BRAIN, 2(3), 76-80.

11. Усманов Н. А., Равшанова Н.А., Отаярова Г.У. Зависимость длины вегетационного периода сортов фасоли обыкновенной от сроков и способов посева. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-718-724 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 718 www.ares.uz

12. Ravshanova N.A. Usmonov I.M.Chulliev A.K., Isroilov B. Photosynthetic activity of bean ordinary depending on ways of seeding/ Science Review// DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr/31102019/6747

13. Otayarova G.U., Ravshanova N.A. Oddiylovianavlaringsug'orish tartiblarinivegetatsiyadavrningdavomiyilgata'siri International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012567>

14. Otayarova G.YU., Xalilov N. i Ravshanova N.A. (2024). Loviyaning o'sishi, o'sish djadalligi va o'rtacha sutkalik o'sishiga sug'orish tartiblarining ta'siri. uchenyy, 2 (5), 95-100. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/102>.

15. Tursunov Sh. N. Otayarova G. U., Quldoshev B. X., Imomnazarova F., N. A. Ravshanova. «Veterinariya va chorvachilik sohalarini rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni» mavzusidagi magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy – amaliy konferensiyasi. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/issue/view/106>, 1010-1013

UO'T: 632.937.1:632.937.3

SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA BEDA EKINI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KURASH CHORALARI

Burxon Fayzullayev,

Tursunov Quvonchbek Shirkulovich,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali.

Annotatsiya. Maqolada beda ekinining asosiy zararkunandalaridan biri Fitonomus-beda barg filchasi (*Phytonomus variabilis* Hbst.) ning bioekologiyasi va unga qarshi kurash usullarining samaradorligi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: fitonomus, beda, preparatlar, samaradorlik, biotsenoz, pestitsid.

Аннотация. Одним из основных вредителей культуры люцерны в статье является фитономус-лиственной слон люцерны (*Phytonomus variabilis* Hbst.) и эффективности методов борьбы с ним.

Ключевые слова: Фитономус, люцерна, препараты, эффективность, биоценоз, пестицид.

Abstract. One of the main pests of alfalfa culture in the article is phytonomus-alfalfa leaf elephant (*Phytonomus variabilis* Hbst.) and the effectiveness of methods of combating it.

Key words: *Phytonomus*, alfalfa, drugs, efficacy, biocenosis, pesticide.

Kirish. Dehqonchilikda tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini muttasil oshirib borishning muhim yullaridan biri paxta-beda almashlab ekishni joriy etishdir. Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, bunda har jihatdan zarur va foydali bo'lgan samaradorlikka erishiladi. Xususan yerning hosildorligi oshadi, g'o'zada vilt kasalliklari kamayadi, chorvachilik uchun mustahkam ozuqa manbai yaratiladi va hakoza. Beda ekin maydonlarini kengaytirish go'sht va sut mahsulдорligini oshirishning kalitidir. Lekin bu kalitdan biz oqilona foydalana olmaymiz. Nega? Chunki

bizda bedaning sifatli urug'i yetishmaydi. Chunki uni yetishtirish jarayonida bir necha yuzlab zararli organizmlar uning urug' hosilining sifati va miqdorini sezilarli darajada pasaytiradi. Bedani ham hammaxo'r, ham faqat bedaga xos hasharotlar zararlaydi.

Beda agrobiotsenoz turlarining xilma xilligi va boyligi bilan xarakterlanadi. Kamida 1000 turdagi fauna qayd etilgan, ammo ularning 100-150-tasi ma'lum darajada zarar keltirishi mumkin. Ularning aksariyati zararkunandalarning asosiy turlari sifatida ta'riflanishi mumkin, qolganlari faqat mahalliy yoki tasodifiy